

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

<https://sp-press.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 7-may

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 137 bet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025>

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz> | <https://sp-press.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 7-may, 2025-yil

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© “Sciences problems team” MChJ, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

<i>Боймуродов Хусниддин, Пардаев Юнус, Хафизова Малика</i> APORRECTODEA ROSEA (SAVIGNY, 1826) ЁМҒИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ.....	6-9
---	-----

-TEHNIKA FANLARI

<i>Инагамов Бобур</i> СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ СОҲАЛАРИДА АМАЛИЙ ТАЖРИБАГА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: ДУАЛ ТАЪЛИМ МОДЕЛИ: КОРХОНА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК.....	10-13
--	-------

TARIX FANLARI

<i>Umarov Sardor</i> GERMANIYANING ILMIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA O'ZBEKISTON VA GERMANIYA XALQ DIPLOMATIYASI DOIRASIDAGI HAMKORLIGINING O'RNI	14-21
<i>Suyarov Maxmudjon</i> ELLINIZM DAVRIDA YUNON YOZUVINING O'RTA OSIYODAGI MAHALLIY TILLARGA TA'SIRI	22-27

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	28-31
<i>Mahsudov Muzaffar</i> DIGITAL TRANSFORMATION AS A CATALYST FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	32-35
<i>Axmedov Latayibxon</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA O'Z KAPITALI HISOB TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	36-39
<i>G'afurova Dilshoda</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	40-43

FALSAFA FANLARI

<i>Danabayev Xurshid</i> KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOY – FALSAFIY MOHIYATI.....	44-47
<i>Norliyev Rustam</i> INSON VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUVOZANAT: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL	48-51

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abdubannoyeva Aziza</i> PSIXOLINGVISTIK TAHLIL METODLARI	52-54
<i>Abdumajitov Khurshid</i> THE PHENOMENON OF ANTONYM IN THE LEXICON OF SUMMER SPORTS IN ENGLISH AND UZBEK.....	55-57

<i>Asqaraliyeva Dilshoda</i> O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDAN MUMTOZ ADABIYOTDA FOYDALANISH VA ULARNING TARBIYAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARI	58-60
--	-------

<i>Исматова Наталья</i> ИСТОКИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	61-65
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Холов Утқир</i> ҚОНУНИЙ КУЧГА КИРГАН СУД ҲУЖЖАТЛАРИНИ ЯНГИ ОЧИЛГАН ҲОЛАТЛАР БЎЙИЧА ҚАЙТА КЎРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ	66-69
--	-------

<i>Otamirzayev Oybek</i> YER OSTI SUVLARI HOLATIDA HUQUQIY BIR NAZAR.....	70-73
--	-------

<i>Ergashova Shahrizoda</i> TRIPS VA WIPO SHARTNOMALARI DOIRASIDA RAQAMLI AKTIVLAR HUQUQIY MAQOMINING EVOLYUTSIYASI	74-76
---	-------

<i>Burxonov Shahzod</i> XALQARO MEHNAT TASHKILOTI VA UNING XALQARO MEHNAT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISHDAGI O'RNI	77-80
---	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor</i> O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR	81-83
--	-------

<i>Исмагилова Мадинабону</i> НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА	84-86
--	-------

<i>Olimov Talat</i> O'QITUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	87-89
--	-------

<i>Kamolova Umida</i> O'QUVCHILARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHDA POETIK TAHLILLAR	90-92
--	-------

TIBBIYOT FANLARI

<i>Tursunova Laylo, Qilichov Sherbek</i> SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING RIVOJLANISH MEKANIZMI VA BUYRAKLARNING FUNKSIONAL FAOLIYATIGA TA'SIRI	93-102
--	--------

<i>Сафоева Саломат</i> КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОК С ПОЛИКИСТОЗОМ ЯИЧНИКОВ АССОЦИИРОВАННЫМ С ГИПОФУНКЦИЕЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ	103-106
---	---------

<i>Ergashev Bekzod</i> JINSIY XROMOSOMALARDA GENLARNING ANORMAL KO'RINISHI	107-112
---	---------

Jurayeva Gulasalxon

REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIKNING
RIOVLANISH XAVF OMILLAR, KASALLIKNING TARQALGANLIGI VA BUYRAKLAR
ZARARLANISH VARIANTLAR 113-121

Ro'zumbetova Safura, Umarova Zamira

PODAGRIK NEFROPATIIYADA BUYRAKLARNING SHIKASTLANISH MEXANIZMI 122-127

FARMATSEVTIKA FANLARI

Shakirova Dinora, Xabibullayeva Shoir

DETERMINATION OF THE ANTIMICROBIAL EFFECT
OF DRIED RASPBERRY LEAVES 128-132

PSIXOLOGIYA FANLARI

Bekmuratova Xalima

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA KASBIY MOTIVATSIYANI
SHAKLLANTIRISH: IJTIMOIIY MUHITNING TA'SIRI 133-136

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

G'afurova Dilshoda Ramazanovna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Menejment va marketing kafedrası prof. v.b., PhD
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-3252-9937>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari, uning zamonaviy ta'lim sifatiga ta'siri va oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, innovatsion faoliyat, ta'lim sifati, innovatsiyalarni boshqarish, ta'lim texnologiyalari.

WAYS TO IMPROVE MECHANISMS FOR DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITY IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Gafurova Dilshoda Ramazanovna,
Tashkent International University of Chemistry,
Department of Management and
Marketing, Acting Professor, PhD

Abstract. The article analyzes the issues of developing innovative activities in higher education institutions, its impact on the quality of modern education and ways to improve the mechanisms for introducing innovations in the higher education system. Recommendations are developed to increase the efficiency of education through the development of innovative activities.

Keywords: higher education, innovative activities, quality of education, innovation management, educational technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-8>

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari va raqamli transformatsiyalar inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi, innovatsion tafakkurni shakllantirish va iqtisodiyotning bilimlarga asoslangan holda rivojlanishini talab etmoqda. Ushbu jarayonlarda oliy ta'lim muassasalarining o'rni yanada oshib, mamlakatlarning innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda asosiy omil sifatida ko'rilmoqda. Raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotga o'tish va jamiyatda ilm-fan natijalarini ishlab chiqarish sohasiga tezkor integratsiya qilish oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni jadallashtirish va uning samaradorligini oshirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi nafaqat bilimlar uzatuvchi institut sifatida, balki ilmiy tadqiqotlar, innovatsion loyihalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb qiluvchi markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari tadqiqot universitetlariga aylantirilib, davlat va biznes sektori bilan uzviy bog'liq hamkorlik orqali yangi innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda ilmiy-innovatsion

faoliyat universitetlarning asosiy missiyasiga aylanib, iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rilmogda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar orasida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va universitetlarni tadqiqot universitetlariga aylantirish yo'nalishlariga alohida urg'u berilgan.

Shunga qaramay, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, innovatsion ekotizimni shakllantirish va uning iqtisodiyotning real sektori bilan bog'lanishini ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish zaruriyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu holat, birinchidan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ikkinchidan, jamiyatda ilmiy-innovatsion salohiyatni kengaytirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

"Innovatsiya" tushunchasi ilk bor XX asr boshlarida iqtisodiy fanlar doirasida ko'rib chiqilib, keyinchalik ilmiy-nazariy jihatdan keng rivojlantirilgan. Innovatsiya tushunchasining klassik nazariy asoslarini yaratishda Y.Shumpeter muhim rol o'ynagan bo'lib, u innovatsiyani ishlab chiqarishda yangi texnologiya, mahsulot va xizmatlar shaklida yangilik kiritish orqali iqtisodiy rivojlanishga olib keluvchi jarayon sifatida ta'riflaydi [1]. Shumpeter nazariyasiga ko'ra, innovatsiyalar iqtisodiyotning siklik rivojlanishida asosiy katalizator hisoblanadi va uning nazariyasi keyinchalik iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga oid ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilgan.

Innovatsiya tushunchasini kengroq yondashuv asosida P.Druker tadqiq qilib, innovatsiyani tashkilot yoki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshiruvchi amaliy jarayon sifatida tavsiflagan. Druker innovatsiyani nafaqat texnik yangilik sifatida, balki iqtisodiy munosabatlarni, boshqaruv mexanizmlarini ham yangilash jarayoni sifatida ko'radi [2]. Uning nazariyasiga ko'ra, tashkilotlar faqat doimiy yangilik yaratish orqali bozorda raqobatbardosh bo'lib qolishi mumkin.

So'nggi yillarda innovatsion faoliyat tushunchasi oliy ta'lim va ilm-fan tizimiga keng tatbiq qilinib, universitetlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion markaz sifatidagi roli dolzarb tadqiqot mavzusiga aylandi. Olimlar Etzkowitz va Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan "Uch karra spiral" (Triple Helix) nazariyasi universitetlar, biznes va davlatning o'zaro integratsiyasi orqali innovatsion rivojlanishning barqaror modelini yaratishni taklif etadi [3]. Ushbu nazariy model universitetlarning iqtisodiyotdagi innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab mamlakatlarda amaliy asos sifatida keng qo'llanilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilishda rivojlangan mamlakatlarning tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. AQSh oliy ta'lim tizimida universitetlarning ilmiy-innovatsion faoliyatga integratsiyasi amaliyotida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng qo'llaniladi. AQSh universitetlarida ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda biznes sektorining ishtiroki yuqori darajada bo'lib, bunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari muhim rol o'ynaydi [4].

Germaniya va Janubiy Koreya universitetlarida innovatsion faoliyat rivojlanishida "ilmiy-texnologik parklar" va "inkubatorlar" mexanizmidan samarali foydalanilmoqda. Universitetlar

huzuridagi texnoparklar innovatsion faoliyat natijalarini tezkor ravishda tijoratlashtirish va yangi startaplarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi [5].

Singapur davlatining ta'lim siyosatida universitetlar ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasining asosiy mexanizmi sifatida ko'riladi. Bu mamlakat universitetlari davlat va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlikda ishlash orqali innovatsion ekotizim shakllanishiga erishmoqda [6].

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish orqali nafaqat ta'lim va ilm-fan sifati oshiriladi, balki innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan inson kapitalini shakllantirishga, yangi ilmiy-texnologik yechimlar va innovatsion loyihalarni yaratishga erishiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bir qator tashkiliy, moliyaviy va institutsional omillar mavjudligini alohida ta'kidlash kerak. Jumladan, universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy-texnologik tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uchun samarali davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy qilish, universitetlar huzurida innovatsion markazlar va texnoparklarni tashkil etish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada chuqurlashtirish zarurdir.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining davlat, biznes va jamiyat bilan uzviy integratsiyasini ta'minlovchi "uch karra spiral" (Triple Helix) modelidan foydalanish mamlakatimiz sharoitida yuqori samaradorlik ko'rsatishi mumkinligi aniqlangan. Ushbu model orqali universitetlar ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida mamlakatda innovatsion ekotizimning shakllanishiga, yangi startap loyihalarining paydo bo'lishiga va raqobatbardosh mahsulotlarning yaratilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning universitetlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish tajribalarini o'rganish va milliy sharoitlarga mos ravishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu borada AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlar tajribalaridan foydalanib, milliy universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish, ilmiy salohiyatini rivojlantirish va iqtisodiyotga real foyda keltiruvchi innovatsion mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

- ✓ Universitetlarning ilmiy-texnologik salohiyatini oshirish va ularning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ✓ Davlat tomonidan universitetlarda olib boriladigan innovatsion faoliyat uchun moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish;
- ✓ Universitetlar va biznes-sektor o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish jarayonlarini tezlashtirish;

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Umuman

olganda, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo'lish, inson kapitalini kuchaytirish va global iqtisodiy maydonda munosib o'rin egallash mumkinligi ta'kidlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press, Cambridge, MA.
2. Drucker, P.F. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row, New York.
3. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: from National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-government relations. Research Policy, 29(2), 109-123.
4. Mowery, D.C., Nelson, R.R., Sampat, B.N., & Ziedonis, A.A. (2004). Ivory Tower and Industrial Innovation: University-Industry Technology Transfer Before and After the Bayh-Dole Act. Stanford University Press.
5. Kim, L., & Nelson, R.R. (2000). Technology, Learning, and Innovation: Experiences of Newly Industrializing Economies. Cambridge University Press.
6. Wong, P.K., & Singh, A. (2008). From technology adopter to innovator: Singapore's development as a global biotechnology hub. In Innovation: Management, Policy & Practice, 10(2-3), 270-286.